

## MAMLAKATMIZDA QISHLOQ XO‘JALIGI TARMOG‘IDA OLIB BORILAYOTGAN ISLOHOTLARI VA ULARNI BUFGALTERIYA HISOBINING TASHKIL QILISHNING XUSUSIYATLARI

*Qodirjonov Dilshodjon Qosimjon o‘g‘li*

*Namangan davlat texnika universiteti 3-BXA-23 gurux talabasi*

*[xulugbek1984@gmail.com](mailto:xulugbek1984@gmail.com)*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar hamda bufgalteriya hisobi tizimining o‘ziga xos jihatlari tahlil qilinadi. Islohotlarning qishloq xo‘jaligi subyektlari moliyaviy boshqaruviga ta‘siri ham ko‘rib chiqiladi.

**Kalit so‘zlar:** Qishloq xo‘jaligi, islohotlar, bufgalteriya hisobi, moliyaviy boshqaruv, innovatsion texnologiyalar, soliqqa tortish, iqtisodiy barqarorlik.

### I. KIRISH

O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi iqtisodiyotning asosiy tarmoqlaridan biri bo‘lib, mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlashda muhim rol o‘ynaydi. Mustaqillik yillaridan boshlab ushbu sohada keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilib, zamonaviy texnologiyalar joriy etilmoqda. Qishloq xo‘jaligi subyektlari faoliyatini yanada samarali tashkil etish, moliyaviy boshqaruvni takomillashtirish va bufgalteriya hisobining shaffofligini ta‘minlash dolzarb masalalardan biridir.

Mazkur maqolada mamlakatimizda qishloq xo‘jaligi sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy yo‘nalishlari hamda bufgalteriya hisobi tizimining xususiyatlari tahlil qilinadi. Bundan tashqari, islohotlarning samaradorligi va ularning qishloq xo‘jaligi subyektlari moliyaviy boshqaruviga ta‘siri ko‘rib chiqiladi.

### II. MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Qishloq xo‘jaligida olib borilayotgan islohotlarning iqtisodiyotga ta‘siri bo‘yicha ko‘plab ilmiy ishlar va normativ-huquqiy hujjatlar mavjud. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining qarorlari, qishloq xo‘jaligi sohasini rivojlantirish bo‘yicha davlat dasturlari muhim huquqiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Tadqiqotchi iqtisodchi A. Xodjayev (2022) o‘zining “Qishloq xo‘jaligida islohotlarning iqtisodiy samaradorligi” nomli maqolasida islohotlarning mehnat unumdorligi va hosildorlikka ta‘sirini o‘rgangan. Shuningdek, D. Karimov (2023) qishloq xo‘jaligi subyektlarida bufgalteriya hisobi yuritishning zamonaviy usullari haqida to‘xtalib o‘tgan.

Jahon tajribasi bo‘yicha AQSh, Yevropa mamlakatlari va Rossiyada qishloq xo‘jaligi subyektlarini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash va hisob tizimlarini avtomatlashtirish bo‘yicha qator tadqiqotlar olib borilgan. Ushbu ilmiy manbalar O‘zbekistondagi jarayonlarni tahlil qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

### III. METODLAR

Ushbu tadqiqotda taqqoslash, iqtisodiy tahlil va statistik metodlar qo'llanilgan. Qishloq xo'jaligida amalga oshirilayotgan islohotlarning samaradorligini baholash uchun amaliy misollar va statistik ma'lumotlardan foydalanildi. Shuningdek, qiyosiy tahlil usuli yordamida O'zbekiston va rivojlangan davlatlardagi qishloq xo'jaligi islohotlarining o'ziga xos jihatlari o'rganildi.

Ekspert intervyulari asosida qishloq xo'jaligi buxgalteriya hisobi tizimidagi muammolar va ularning yechimlari tahlil qilindi. Bundan tashqari, davlat statistika qo'mitasi va xalqaro tashkilotlar tomonidan e'lon qilingan ma'lumotlar asosida iqtisodiy tahlillar olib borildi.

Ushbu metodlar orqali yig'ilgan ma'lumotlar tahlil qilib, islohotlarning buxgalteriya hisobining tashkil etilishiga ta'siri haqida aniq xulosalar chiqarildi.

### IV. TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekiston qishloq xo'jaligi tarmog'ida olib borilayotgan islohotlar iqtisodiy rivojlanishning muhim omillaridan biridir. So'nggi yillarda davlat tomonidan qishloq xo'jaligi subyektlarini qo'llab-quvvatlash, subsidiyalar ajratish va soliqqa tortish tizimini soddalashtirish bo'yicha qator tashabbuslar amalga oshirildi. Buxgalteriya hisobi esa bu jarayonlarning aniq va shaffof yuritilishini ta'minlashda asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Birinchidan, qishloq xo'jaligi korxonalarini uchun davlat tomonidan berilayotgan imtiyozlar moliyaviy hisobotlarning to'g'ri yuritilishini talab qiladi. Soliqqa tortish mexanizmlarining soddalashtirilishi, ayniqsa, fermer xo'jaliklari uchun muhim bo'lib, ularning buxgalteriya hisobi yuritish xarajatlarini kamaytiradi.

Ikkinchidan, zamonaviy buxgalteriya dasturlarining joriy etilishi qishloq xo'jaligi subyektlarining hisob-kitoblarini avtomatlashtirishga yordam bermoqda. Bu esa o'z navbatida inson omilidan kelib chiqadigan xatoliklarni kamaytiradi va buxgalteriya jarayonlarining samaradorligini oshiradi.

Bundan tashqari, islohotlar natijasida qishloq xo'jaligi tarmog'ida iqtisodiy barqarorlik oshib, xorijiy investitsiyalar jalb etish imkoniyatlari kengaymoqda. Shuningdek, xalqaro buxgalteriya standartlariga muvofiq hisobot yuritish qishloq xo'jaligi korxonalarining moliyaviy ko'rsatkichlarini oshirishga xizmat qilmoqda.

Natijalar shuni ko'rsatadiki, qishloq xo'jaligi sohasida olib borilayotgan islohotlar buxgalteriya hisobining shaffofligi va aniqligini oshirish bilan birga, iqtisodiy o'sishning asosiy drayverlaridan biri bo'lib xizmat qilmoqda.

Qishloq xo'jalik korxonalarining faoliyatini o'rganishda tahlil uslubiga ko'ra, taqqoslash, tekshirish, ma'lumotlarni ishlab chiqish statistik guruhlash, o'rtacha va nisbiy ko'rsatkichlar, zanjirli bog'lanish usullari, matematik usullar va hokazolardan foydalaniladi. Qishloq xo'jalik korxonalarining faoliyatini yuqorida qayd etilgan usullar yordamida o'rganish xo'jalikdagi foydalanilmayotgan imkoniyatlarni aniqlashga, ularni ishlab chiqarishga joriy etish ish faoliyati samaradorligini oshirishga imkon yaratadi. Bunda eng ko'p qo'llaniladigan usullardan biri taqqoslashdir. Bu usulda bir necha iqtisodiy ko'rsatkichlardan foydalaniladi. Jumladan:

- hisobot ko'rsatkichlari rejada keltirilgan ma'lumotlar bilan taqqoslanadi;

- hisobot yilida erishilgan natijalarni ko‘rsatuvchi o‘tgan yillardagi bajarilish ma‘lumotlari bilan solishtiriladi;

- ishlab chiqarish yo‘nalishida bir necha yil davomida o‘zgarishlar dinamikasi aniqlanadi;

- qishloq xo‘jalik bo‘linmalarining ishlab chiqarish natijalari tuman, viloyat va respublika bo‘yicha erishilgan ko‘rsatkichlar, hamda dehqon va fermer xo‘jaliklari ish natijalari bilan birgalikda solishtiriladi. Bu orqali ishlab chiqarish imkoniyatlarini aniqlash va ularni joriy etish choralarini belgilash imkoniyati ayonlashadi.

Taqqoslash usuli yordamida qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishida o‘zaro uzviy bog‘liq ko‘p ko‘rsatkichlar bir-biriga solishtiriladi. Xususan, har gektar qishloq xo‘jalik yeri hisobiga qanchadan daromad olish, mehnat unumdorligini mahsulot tannarxi, mahsulot sotishni, qishloq xo‘jaligida tovar mahsulotlarining o‘sishi, xo‘jaliklarning daromadi va ularning taqsimlanishi, texnikadan foydalanishi, mehnat, yem-xashak balansi, xo‘jalik iqtisodiyotining rivojlanishi va boshqa ko‘rsatkichlarni taqqoslash mumkin. Har bir taqqoslash o‘ziga xos ahamiyatga ega bo‘lib, korxonalarining ishlab chiqarish ko‘rsatkichlarini yaxshilash yo‘nalishi uchun zarur muammolarni topishga imkon beradi. Taqqoslash usulidan foydalanishda taqqoslash uchun solishtirish mumkin bo‘lgan ko‘rsatkichlardan foylanish kerak. Masalan, bir necha yil davomida yetishtirilgan qishloq xo‘jalik mahsulotlarining umumiy xajmidagi o‘zgarisho‘larni belgilash uchun haqiqiy sotish narxlarini emas, balki bir birlikka keltirilgan narxlarni taqqoslash zarur. Guruhlarga ajratilgan uslub, guruhlash ma‘lumotlarini ma‘lum belgilarga ko‘ra guruhlarga bo‘lish demakdir. U tovar tahlilning muhim usuli hisoblanadi. Uning yordamida xo‘jalik tarmoqlari, hosildorlik, mahsulot hajmi, chorva mollari mahsuldorligi va boshqalar aniqlanadi. Iqtisodiy ko‘rsatkichlar sifat jihatdan bir xil bo‘lgan guruhlarga bo‘linadi. Ko‘rsatkichlar o‘rtasida bir-biriga bog‘lanishlar borligini o‘rganilayotgan hodisalarning eng muhimlardan biri ekanligi aniqlanadi.

Har bir omillarning ishlab chiqarish natijalariga qay darajada, qanday ta‘sir qilishi belgilanadi. Strategik guruhlash uslubi qishloq xo‘jaligini rivojlantirish imkoniyatlarni aniqlab berishning muhim vositasidir. Uning yordamida sifati bir xil bo‘lgan ko‘rsatkichlar bir guruhga birlashtiriladi. Qishloq xo‘jalik korxonalarida tahlil qilish ishlarini tashkil etishning asosiy shakli iqtisodiy tahlil bilan shug‘ullanuvchi iqtisodiy kengashdir.<sup>157</sup> Uning asosiy vazifasi xo‘jalikning va ishlab chiqarish bo‘linmalarining ma‘lum davr ichidagi ish natijalarini har tomonlama o‘rganishdan iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishning joriy istiqboli rejalarini ishlab chiqishda qatnashishidan, imkoniyatlarni aniqlanishidan, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish yo‘llarini belgilashdan iborat.

Qishloq xo‘jaligi korxonalarini faoliyati moliyaviy natijalari olingan miqdori va rentabellik darajasi bilan xarakterlanadi. Foyda miqdori qanchalik ko‘p va rentabellik

<sup>157</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori “Qishloq xo‘jaligi sohasini rivojlantirish strategiyasi”. <https://lex.uz/mact/-5309655>

darajasi qanchalik yuqori bo‘lsa, korxonada shunchalik samarali faoliyat yuritadi, uning moliyaviy holati shunchalik barqaror bo‘ladi. Shuning uchun foyda miqdori va rentabellikni oshirish imkoniyatlarini qidirish har qanday biznes sohasida asosiy masalalardan biri hisoblanadi. Moliyaviy natijalarni boshqarish jarayonida iqtisodiy tahlil muhim ahamiyatga ega bo‘lib, u quyidagi vazifalarni bajaradi:

- moliyaviy natijalarning shakllanishi ustidan muntazam nazorat yuritish;
- ham obyektiv va ham subyektiv omillarning moliyaviy natijalarga ta‘sirini aniqlash;
- foyda miqdori va rentabellik darajasini oshirish imkoniyatlarini aniqlash, hamda ularni bashorat etish;
- foyda va rentabellikni oshirish imkoniyatlaridan foydalanish bo‘yicha korxonada ishini baholash;

- aniqlangan imkoniyatlarni tadbir etish bo‘yicha chora- tadbirlar ishlab chiqish. Tahlil etish jarayonida quyidagi foyda ko‘rsatkichlari ishlatiladi:

-marjinal foyda (sotilgan mahsulot bo‘yicha tushum va ishlab chiqarish xarajatlari orasidagi farq);

-mahsulot, tovar, xizmatlar sotilishidan olinadigan foyda (marjinal foyda va hisobot yilidagi doimiy xarajatlar miqdorlari orasidagi farq);

-soliqqa tortilganga qadar umumiy moliyaviy natija (mahsulot, ish va xizmatlarni sotishdan olinadigan moliyaviy natijalar, investitsiyaviy va moliyaviy faoliyatdan olinadigan daromad va xarajatlar, sotishdan tashqari va favqulotdagi daromad va xarajatlar);

-soliqqa tortiluvchi foyda (brutto-foyda va daromad solig‘iga tortiluvchi foyda miqdori orasidagi farq, foyda solig‘i bo‘yicha imtiyozlar miqdori);

-sof foyda - bu hamma soliqlar, iqtisodiy jarimalar va boshqa majburiy To‘lovlardan so‘ng korxonada ixtiyorida qoluvchi foydaning bir qismi;

-kapitallashtirilgan (taqsimlanmagan) foyda - bu aktivlarni ko‘paytirish uchun yo‘naltirilgan foydaning bir qismi;

-iste‘moldagi foyda - dividendlarni to‘lash, korxonada xodimlari yoki ijtimoiy dasturlar uchun sarflanuvchi foydaning bir qismi.

Tahlil etish jarayonida balansdagi foyda tarkibi, uning tuzilishi, o‘zgarishi va hisobot yilida belgilangan miqdorga erishilganligini o‘rganish lozim. Foydaning o‘zgarishini o‘rganishda inflyatsiyaviy omillarni inobatga olish maqsadga muvofiqdir. Bunda tushumni tarmoq bo‘yicha korxonada mahsulotiga narxlar o‘shirishining solishtirma indeksi asosida, xarajatlarni esa tahlil etilayotgan yilda iste‘mol qilingan resurslar narxining oshishi natijasida erishilgan o‘shirish sur‘ati barobarida kamaytirish asosida qayta aniqlaydilar. Agrar soha korxonalarida foydaning asosiy qismini mahsulot va xizmatlarni sotishdan olishadi. Tahlil etish jarayonida mahsulotni sotishdan olinadigan foydaning o‘zgarishi o‘rganiladi, hamda uning o‘zgarish omillari aniqlanadi.

Mahsulotni sotish hajmi foyda miqdoriga ijobiy va salbiy ta‘sir etishi mumkin. Rentabelli mahsulotni sotish hajmining oshirilishi foydaning ko‘payishiga olib keladi.

Агар маҳсулот зийон келтирувчи бо'lsa, сотиш ҳажмининг ошishi билан фойда камаяди. Товар маҳсулоти таркиби фойда миқдорига ҳам ижобий ҳам салбий та'сир етadi. Агар нисбатан рентабелли маҳсулот турлари улushi умумий сотиш ҳажмидан ошса фойда миқдори ко'payadi. Акинча, кам рентабелли маҳсулот yoki зийон келтирувчи маҳсулот улushi ошса фойданинг умумий миқдори камаяди. Маҳсулот тannарxi фойдaga тесkari пропорционал: тannарxнинг тushishi фойданинг оshishiga олиб келadi va акинча. Hisob-kitoblar har bir турdagi маҳсулот бо'yicha амалга оshirilgandan со'ng, kоrxonada qaysi маҳсулот турини ishlab chiqarish нисбатан daromadliligi, рентабеллик darajasi qanday o'zgarganligi va bunga qaysi omillarning ta'siri bo'lganligini aniqlash mumkin.<sup>158</sup>

Tadqiqot natijasida quyidagilar ko'rsatkichlar va yo'nalishlar orqali ko'rib chiqiladi:

- Islohotlarning asosiy yo'nalishlari: Qishloq xo'jaligi sohasida yerdan foydalanishni optimallashtirish, agrotexnologiyalarni joriy etish, moliyalashtirish tizimini takomillashtirish kabi islohotlar amalga oshirilmogda.
- Buxgalteriya hisobiga ta'sir: Yangi moliyaviy hisobot standartlari va avtomatlashtirilgan hisob tizimlari joriy etilishi qishloq xo'jaligi korxonalarida hisob-kitoblarning aniqligi va shaffoqligini oshirdi.
- Hisobotlarning yaxshilanishi: Islohotlar natijasida buxgalteriya hisobotlarini tayyorlashda xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga muvofiqlashtirish jarayonlari kuchaydi.



Tadqiqot ishi doirasida "Navbaxor Agro" qishloq xo'jaligi korxonasining iqtisodiy Tahlili amalga oshirildi

- Daromad va xarajatlar dinamikasi: "Navbaxor Agro" korxonasining so'nggi to'rt yil davomidagi moliyaviy natijalari tahlil qilindi. 2020 yilda umumiy daromad 2,5 mlrd so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2023 yilga kelib bu ko'rsatkich 4,2 mlrd so'mga yetdi. Xarajatlar esa 1,8 mlrd so'mdan 3,0 mlrd so'mga oshdi.
- Rentabellik darajasi: 2020 yilda rentabellik darajasi 25% ni tashkil etgan bo'lsa, 2023 yilda bu ko'rsatkich 30% gacha oshdi. Bu islohotlar natijasida resurslardan samarali foydalanish va avtomatlashtirilgan hisob tizimlarining joriy etilishi bilan bog'liq.
- Ishonchlilik darajasi (Level of Reliability): Korxonada moliyaviy hisobotlarining ishonchliligi buxgalteriya hisobining avtomatlashtirilgan tizimlari orqali oshirildi. Xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga muvofiq tayyorlangan hisobotlar orqali audit tekshiruvlarida yuqori ishonch darajasi qayd etildi.

Statistik tahlil usuli:

Misol: Davlat statistika qo'mitasining 2020-2023 yillar davomida qishloq xo'jaligi sohasidagi ishlab chiqarish hajmi va moliyaviy ko'rsatkichlar bo'yicha statistik ma'lumotlari tahlil qilindi.

<sup>158</sup> Samatov G.A., Rustamova I.B. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini tashkil etish. Ma'ruza matni. - Toshkent: ToshDAU taxririyat-nashriyot bo'limi, 2018. - 120 b..



#### Keys-stadi (amaliy misollar) tahlili:

“Navbaxor Agro” fermer xo‘jaligining yangi moliyaviy hisobot standartlarini joriy etishi jarayoni misolida buxgalteriya hisobining tashkil etilishida yuzaga kelgan muammo va yechimlar tahlil qilindi.

#### Mavjud muammolar:

Kadrlar malakasi yetishmasligi: Yangi standartlarni amalga oshirishda buxgalterlar xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (IFRS) bo‘yicha yetarli bilim va ko‘nikmaga ega emas edilar.

Avtomatlashtirilgan tizimlardan foydalanish qiyinchiliklari: Yangi hisobot tizimlarini joriy etishda texnik va dasturiy qiyinchiliklar yuzaga keldi.

Hujjatlashtirish muammolari: Yangi standartlarga muvofiq ravishda moliyaviy hujjatlarni tayyorlashda noaniqliklar kuzatildi.

Mavjud yechimlar:

Kadrlar malakasini oshirish kurslari: Buxgalterlar va moliya mutaxassislari uchun maxsus treninglar va seminarlar tashkil etildi.

Texnik qo‘llab-quvvatlash: Avtomatlashtirilgan hisob tizimlari uchun dasturiy ta‘minotni takomillashtirish va texnik yordam ko‘rsatish choralari ko‘rildi.

Yangi hisobot standartlariga muvofiq hujjatlar ishlab chiqish: Moliyaviy hisobotlarning shakli va mazmunini xalqaro standartlarga moslashtirish bo‘yicha metodik qo‘llanmalar tayyorlandi.

Islohotlar natijasida qishloq xo‘jaligi korxonalarining moliyaviy natijalariga ijobiy ta‘sir ko‘rsatildi. Biroq, ba‘zi muammolar ham mavjud, jumladan kadrlar malakasini oshirish, yangi hisob tizimlarini joriy etishdagi qiyinchiliklar.

## V. XULOSA

Qishloq xo‘jaligi tarmog‘idagi islohotlar mamlakatimiz iqtisodiy rivojlanishiga katta hissa qo‘shmoqda. Buxgalteriya hisobining tashkil etilishida zamonaviy yondashuvlarni qo‘llash islohotlarning samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda.

Ushbu tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligi tarmog‘ida amalga oshirilayotgan islohotlar qishloq xo‘jaligi subyektlarining samaradorligini oshirishda muhim rol o‘ynamoqda. Davlat tomonidan berilayotgan moliyaviy imtiyozlar va soliqqa tortish mexanizmlarining soddalashtirilishi natijasida fermer xo‘jaliklari va boshqa qishloq xo‘jaligi subyektlari o‘z faoliyatini yanada samarali tashkil eta olmoqdalar.

Buxgalteriya hisobi tizimining avtomatlashtirilishi qishloq xo‘jaligi korxonalarining hisob-kitob jarayonlarini aniq va shaffof yuritishga yordam bermoqda. Shuningdek, xalqaro buxgalteriya standartlariga moslashish jarayoni investitsion jozibadorlikni oshirib, xorijiy investitsiyalar jalb etishga xizmat qilmoqda.

Kelgusida qishloq xo‘jaligi sektorida yanada barqaror rivojlanish ta‘minlanishi uchun islohotlarni davom ettirish, zamonaviy texnologiyalarni keng joriy etish va buxgalteriya hisobi tizimini yanada takomillashtirish lozim. Bunday chora-tadbirlar qishloq xo‘jaligi sohasining yanada rivojlanishiga hamda iqtisodiy barqarorlikka hissa qo‘shadi.

## VI. FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori “Qishloq xo‘jaligi sohasini rivojlantirish strategiyasi”.

2. Samatov G.A., Rustamova I.B. Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini tashkil etish. Ma‘ruza matni. - Toshkent: ToshDAU taxririya-nashriyat bo‘limi, 2018. - 120 b.

3. Samatov G.A., Rustamova I.B., Gaybullayev O.B. Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini tashkil etish fanidan amaliyot darslari uchun uslubiy ko‘llanma. - Toshkent: ToshDAU taxririya-nashriyat bo‘limi, 2020. - 120 b.

4. Jo'rayev F. Qishloq xo'jalik korxonalarida ishlab chiqarishni tashkil etish. Darslik. - Samarqand: Samarqand qishloq xo'jalik instituti, 2019y.
5. Davlat statistika qo'mitasining yillik hisobotlari (2020-2024).
6. Xalqaro qishloq xo'jaligi rivojlanishi bo'yicha tashkilotlar (FAO, IFAD)ning tahlillari.
7. Abdulazizovich, X. U. B. (2023). Moliyaviy aktivlar hisobini yuritishda xalqaro standartlar qoidalarini qo'llash masalalari. Ilmiy monografiya. Toshkent–2023.121 b.
8. Abdulazizovich, K. U. (2022). Improving Methodological Approaches to Financial Asset Accounting. *INTERNATIONAL JOURNAL OF RESEARCH IN COMMERCE, IT, ENGINEERING AND SOCIAL SCIENCES* ISSN: 2349-7793 Impact Factor: 6.876, 16(4), 56-62.
9. Abdulazizovich, K. U. B. (2023). Improvement Of Information About Accounts Receivable In Current Assets In The Balance Sheet Based On International Standards. *Journal of Survey in Fisheries Sciences*, 10, 2849-2859.
10. Khakimov, B. J., Alimov, B. B., Kholmirezayev, U. A., & Polechov, A. X. (2013). theory of Economic Analysis. *Tashkent" economics-finance"—2013*.
11. Abdulazizovich, X. U. B. (2024). MOLIVAVIY AKTIVLAR TASNIFINI TAKOMILLASHTIRISH. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 41(2), 82-86.
12. Abdulazizovich, X. U. B. (2025). INNOVASION FAOLIYATNING MOLIVAVIY TA'MINOTINI KUCHAYTIRISH ZARURLIGI VA OMILLARI TAHLILI. *Scientific Journal of Actuarial Finance and Accounting*, 5(03), 142-146.
13. Abdulazizovich, X. U. B. (2025). MOLIVAVIY AKTIVLAR HISOBINING USLUBIY ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 62(3), 146-152.